

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKUL'TETI
IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT TA'LIM YO'NALISHI

QOSIMOVA SHAHNOZA RASULJONOVNA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: MILLIY MA'NAVIYATGA HURMAT UMUMINSONIY QADRIYATLAR
NEGIZI.

ILMIY RAHBAR: KATTA O'QITUVCHI B. BO'RONOV

NAMANGAN - 2011

**MAVZU : MILLIY MA`NAVIYATGA HURMAT UMUMINSONIY QADRIYATLAR
NEGIZI.
REJA**

KIRISH

**1-BOB. MILLIY MA`NAVIYAT SHAKLLANISHINING NAZARIY
METODOLOGIK ASOSLARI.**

- 1.1. Milliy ma`naviyat nazariyasini shakllantirishning umummetodologik asoslari
- 1.2. Umuminsoniy qadriyatlar va ularni milliy ma`naviyat munosabati.

**11-BOB. FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR
O`RNI VA MILLIY MA`NAVIYATGA HURMAT**

- 2.1. Milliy ma`naviyatga hurmat – umuminsoniy qadriyatlar rivojlanish omili
- 2.2. Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi
- 2.3. Yosh avlodni milliy ma`naviyatimiz an`analari ruhida tarbiyalash - ular ongini turli g'arazli "oqimlar" ta`siridan himoyalashning samarali yo'li.

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik xalqimizning ma'naviy yuksalishiga katta yo'l ochib berdi. O'z navbatida ma'naviyat mustaqil davlatimiz poydevorini mustahkamlashga faol ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov aytgandek, «Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatining kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi»¹.

Milliy g'oya butun O'zbekiston xalqining milliy ruhini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan buyuk kuchdir. Uni mukammal egallab olib, Prezidentimiz atrofida jipslashib, jonajon Respublikamizni kelajagi buyuk davlatlar safiga chiqarish uchun astoydil mehnat qilish mamlakatimizda istiqomat qiluvchi har bir kishining sharaflari burchidir. Vatanimiz baxt saodati, xalqimiz, millatimiz kelajagi, istiqbolimiz taqdiri barchamiz uchun muqaddasdir. Milliy-ma'naviy tiklanish o'zining mazmuni va olijanob maqsadlari bilan inqilobiy mohiyatga ega bo'lgan tarixiy voqeadir. Uni har tomonlama tasvirlab, tavsiflab, mohiyatini fuqarolar qalbiga quyish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish, o'ziga xos islohot modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yilgan. «Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotganligi–bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, printsip va normalarning hayotbaxsh samarasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi»². Shuning uchun «Ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi, – deydi I.A.Karimov, – imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»³.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlash mumkin. O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati qurish amaliyotini ishlab chiqilishida milliy ma'naviyatimizni umuminsoniy qadriyatlarga ta'sirini amalga oshirish ijtimoiy fanlar uchun ilmiy-amaliy qimmatga ega deb hisoblaymiz. Shuningdek, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish⁴. Milliy ma'naviyatni shakllantirish jarayonida axolini, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma'naviy madaniyat, yuksak axloqiy qadriyat sifatlariga ega bo'lgan, barkamol shaxs etib tarbiyalash muammosi yoritish siyosiy, fuqarolik va ma'naviy-madaniy cohalarda jadallik bilan amalga oshirilishi. Prezident I.A.Karimov ham alohida ta'kidlaydi: «Hech bir jamiyat ma'naviy salohiyatni, insonlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlashsiz o'z istiqbolini ko'ra olmaydi»⁵. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish talabi BMI mavzusini

¹ Lafasov M., Yusupov O', Nomozova K. Milliy –ma'naviy tiklanish. O'quv qo'llanma. T., 2008. –B.209.

² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Prezident I.A Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganning 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Ishonch. 2010 yil 8 dekabr.

³Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.:O'zbekiston, 2000. – B. 25.

⁴ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. –Т.: Ўзбекистон, 2010. –Б.5.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.137.

dolzarbligini ko'rsatadi. Qolaversa, axolining reproduktiv kayfiyati o'zgaruvchan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillarning ta'sirida o'zgarib turadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara qilib mustaqillik yillari davri olingan. Chunki, Mustaqillik yillarida O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan milliy ma'naviyatining takomili, milliy va umuminsoniy qadriyatlar shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'analarga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, kontsepsiya asosida shakllantirilmoqda⁶.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Milliy ma'naviyat ijtimoiy fanlarda keng o'rganilsada, lekin umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rni bilan bog'liq doirada hali tadqiq etilmagan. Milliy ma'naviyat, qadriyat, umuminsoniy qadriyat tushunchalari turli jihatlar keyingi yillarda Respublikamiz olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ammo ularni o'rganilayotgan mavzu jihatdan kam o'rganilgan. Respublikamizda mazkur muammo bilan shug'ullanuvchi olimlar sifatida X.Shayxova, J.Tulenov, N.Jo'raev, A.Azizxo'jaev, I.Ergashev, M.Imomnazarov, M.Lafasov kabi mutaxassislarning ilmiy ishlari ko'rish mumkin⁷.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanish va modernizatsiya sharoitida milliy ma'naviyatga hurmat umuminsoniy qadriyatlar negizini o'rni va xususiyatlarini ochib berish iborat. Mazkur maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-Milliy ma'naviyatning jamiyat ijtimoiy barqarorligi, milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida tasniflash;

-Respublikada xalqimix xususan yoshlar orasida umuminsoniy qadriyatlarni milliy ma'naviyatga ta'sirining ijtimoiy mazmuni va xususiyatlarini tadqiq etish;

-Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarak ekanligini ochib berish;

-Yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz an'analari ruhida tarbiyalash - ular ongini turli g'arazli "oqimlar" ta'siridan himoyalashning samarali yo'llarini tahlil etish muhim vosita ekanligini e'tirof etilishi.

Ishning nazariy va metodologik asoslari Prezident I.A.Karimovning asar, nutq, va ma ruzalarida bayon etilgan⁸. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari shakllantirish kontsepsiyasi muammoni tadqiq etishning nazariy asosi qilib olindi. Shu bilan birga o'zbek xalqining boy milliy-diniy, siyosiy, ma'naviy, madaniy merosi tadqiqotning ilmiy nazariy asosi qilib olingan.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari bo'lib, Prezident I.A.Karimovning asar, nutq, va ma ruzalari, mustaqillik davrida ushbu sohaga oid yozilgan

⁶ Qarang. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. -T.: Ma'naviyat, 2010.

⁷ Shayxova X. Inson va uning ma'naviy dunyosi. – T.: O'zbekiston, 1993; Azizxo'jaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. – T.:Sharq, 1997; Bobomatov U. O'zbek milliy qadriyatlari tiklanishining ba'zi muammolari. Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanining dolzarb muammolari. 1997; Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. -T.: Ma'naviyat, 1998; Imomnazarov M. Shaxs ma'naviyati va fuqaro mas'uliyati. // Xalq so'zi, 1998 yil.15 sentyabr; Falsafa : qomusiy lug'at (tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – Toshkent: Sharq, 2004; Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Darslik. f.f.d. I. Ergashev taxriri ostida -T.: O'zbekiston, 2005; Imomnazarov M., Lafasov M. Ma'naviyat asoslari. –T., 2008; va boshq.

⁸ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T., O'zbekiston, 1998; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik, shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997; Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. –T.: O'zbekiston, 1998; Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdur. –T.: O'zbekiston, 2000; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008; Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009; Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2010; Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1-sentyabr ; Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davomi – taraqqiyotimizning muhim omilidir. "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr ; Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar .

risola, darslik, qo'llanmalar, davriy matbuot namunalari, kundalik nashrlarning materiallari manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati qurilishi sharoitida milliy ma'naviyatning umuminsoniy qadriyatlar negizi ekanligini ma'naviy tizimdagi o'rni va xususiyatlarini ochib berilgan. Shuningdek, milliy ma'naviyat nazariyasi shakllantirishning umummetodologik asoslari Prezident asarlari orqali tahlil etilgan. Qolaversa, milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz an'analari ruhida tarbiyalash, ular ongini turli g'arazli "oqimlar" ta'siridan himoyalash yo'llariga ham e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotdan "Ma'naviyat asoslari" fanida, Ma'naviyat soatlari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaldagi sinovlari tadqiqotning asosiy ilmiy xulosalari ilmiy jamoatchilikka 2011 yilning mart-aprel oylarida bo'lib o'tgan Namangan Davlat universiteti Tarix fakul teti Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrasiga biriktirilgan talabalarning Bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyalarida yetkazilgan.

Tadqiqotning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. MILLIY MA'NAVIYAT SHAKLLANISHINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.

1.1. Milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirishning umummetodologik asoslari

Mustaqillikning dastlabki yillarida Prezident O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'li asoslarini ishlab chiqar ekan, birinchi marta "dunyoda umumiy yo'l-yo'riqlar, o'xshash andazalar yo'q"⁹ ekanligini e'tirof etib, o'zimizning milliy "betakror yaxlit andazamizni ishlab chiqish"ni maqsad qilib qo'ydi.¹⁰ Buning uchun milliy tafakkur an'analarimizni insonlar ongida qayta tiklash zarur edi. "Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlar, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi", deb ta'kidlaydi Prezident¹¹. Asosiy Qomusimizni yaratish jarayonida ham shu jihatga katta e'tibor berildi. Shu sababli mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi "umumiy mazmunidan tortib oddiy bir bandiga qadar Xo'ja Ahmad Yassaviy bobomiz davrida, Amir Temur zamonida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi"¹².

Shunday qilib, mustaqil O'zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi umummetodologik asoslar Prezident I.A.Karimov asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu asoslarning mavzuga bevosita aloqador bo'lgan ba'zi muhim jihatlarini ko'rish mumkin: a) ko'p qutbli dunyo - Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobi mustaqillik davri milliy mafkurasining umummetodologik asoslari shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Bu asar voqelikka yondoshuv va muammolar tahlilida mutlaqo yangicha g'oyalarni oldinga suradi.

Sobiq Ittifoq davrida tashqi siyosat muammolari ham dunyoni qarama-qarshi ikki qutbga bo'lingan holda tasavvur qilish asosiga qurilar edi. Jumladan, o'sha davrdagi sho'rolar tuzumi uchun eng asosiy xavf manbai "xalqaro imperialistik kuchlar" hisoblanar edi. Sovet jamiyatidagi barcha ichki illatlar manbai ham "feodal va burjua o'tmish sarqitlari" hamda "jahon imperializmining nayranglari" oqibati deb qaralardi. "Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o'tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi".¹³

Dunyo endi ikki qutbli emas, deb ta'kidlaydi Prezident, ushbu ko'p qutbli dunyoda har bir millat, har bir inson o'z yo'lini to'g'ri topib yura olishi uchun voqelikka qanday nazar bilan qarashni o'rgatadi. Nasihat qilib, ko'rsatma berib emas, shaxsiy namuna ko'rsatib, voqeiy ibrat orqali namoyon qiladi. I.A.Karimov 1995 yil 27 oktyabrda O'zbekiston teleko'rsatuvlar muxbiri bilan suhbatdayoq bugungi kunda "ko'p qutbli dunyo haqida fikr yuritish lozim bo'ladi"¹⁴, deb aytgan edi. U Birlashgan millatlar tashkilotining vazifalari haqidagi o'z mulohazalari bilan o'rtoqlashar ekan, yana shu fikrni rivojlantirib shunday degan edi: "Afrika qit'asi vakillari o'zlariga xos, osiyoliklar - boshqacharoq fikr qiladi... Amerikaliklarning o'z yondoshuvlari, yevropaliklarning o'z yondoshuvlari bor". Demak, shunday sharoitda jahonning 187 davlati vakillaridan tuzilgan tashkilotning asosiy vazifasi - "xalqlar o'rtasidagi ahillikni ta'minlash, turli

⁹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.3

¹⁰ O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.277.

¹¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.13.

¹² O'sha asar. -B.93-94.

¹³ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida 6-jild. -T.: O'zbekiston, 1998. -B.41.

¹⁴ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.62.

qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlarga olib keladigan nizolarga yo'l qo'ymaslikdan iborat" bo'lmog'i tabiiydir.¹⁵

Prezidentning bu yangicha yondoshuvi to'lig'icha, ham necha ming yillik milliy ma'naviyatimiz an'alariga, ham bugungi jahon fikriy kamolotining eng ilg'or tamoyillariga tayanadi. Unda har bir shaxs ma'naviy hurligi, bir tomondan, vatan va millat manfaatlariga muvofiqlik bilan, ikkinchi tomondan, umumbashariy qadriyatlar muhofazasi bilan uyg'unlashgan. Zero, asl ma'naviyat shaxs, millat, bashariyat manfaatlarining uyg'unligidadir. Bu uyg'unlik yagona Oliy Haqiqatga og'ishmay intilishda namoyon bo'ladi. b) inson – dunyo mehvari. Bu dunyo ko'p qutbli bo'lsa, uning mehvari, tayanchi qaerda, aniqroq aytadigan bo'lsak, dunyoga yondoshuvda qaysi nuqtaga tayanmoq kerak. yevropa falsafiy tafakkurida inson va jamiyat munosabatlariga nisbatan olganda ikki xil yondoshuvni ko'rish mumkin. Ulardan birinchisi jamiyatni birinchi o'ringa qo'yib, undan alohida inson taqdirini, uning fazilat va qusurlarini keltirib chiqarishga intiladi. Faylasuflarning «inson o'z mohiyatiga ko'ra barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir», deb bergan ta'rifining uzoq tarixi avvalida Aristotelning “Zoon politikon”(ijtimoiy maxluq) atamasi turadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Gegel falsafasi ham qadim Yunondan boshlangan yo'nalishni davom ettirib “mutlaq g'oya”dan keyin moddiy borliq, ya'ni tabiat, undan keyin jamiyatni va oxirida alohida sub'ektni olib tadrijiy tahlil etadi. Bunga keyincha marksistlar “ob'ektiv idealizm” deb tamg'a bosishgan. yevropa falsafasining ikkinchi yo'nalishini faylasuflar “sub'ektiv idealizm” deb nomlab o'rganishgan bo'lib, bunda birinchi o'ringa inson shaxsi chiqariladi. Bugun dunyoda keng yoyilgan ekzistentsializm, freydizm kabi falsafiy tizimlar, darhaqiqat, inson shaxsi, uning o'y-kechinmalarini falsafiy tahlil markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi. Bu sohada XX asrning yetakchi faylasuflaridan hisoblangan Erix Frommning jiddiy mushohadalari ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda.

Alloh Odam Atoni yer yuzida xalifa qilib yaratganligi ilohiy kalom bilan tasdiqlanishini inson zotiga nafaqat imtiyoz, balki juda og'ir mas'uliyat yuklaydi. Inson yer yuzidagi barcha Alloh yaratgan mavjudotlarni tasarruf qiladi, shu bilan birga ular uchun mas'ul hamdir. Agar Gegel o'z yaxlit falsafiy tizimida nazarini “mutlaq g'oya”dan moddiy borliq(tabiat), jamiyat orqali alohida sub'ekt (Inson)ga qarab yo'naltirgan bo'lsa, bu uning muayyan ichki intilishlari, maqsad yo'nalishi, va balki, u yashab ijod etgan muayyan zamon va makonning taqozosidir. Bugun bizning muayyan sharoitimizda Prezident I.A.Karimov mutlaqo boshqacha yondoshuvni taklif etmoqda. “Har bir kishi o'zicha noyob hodisa, -deb yozadi u, - bu mening qat'iy ishonch-e'tiqodim”¹⁶.

“Bizning asosiy maqsadimiz,- deydi Prezident, - bir kishi yoki jamoat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustun bo'ladigan fuqarolar jamiyati qurishdan iborat”¹⁷.

Darhaqiqat, o'tmishimiz qancha buyuk bo'lmasin, kelajagimizning ulug'vorligi millatning har bir a'zosi, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi ushbu kelajakda Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, inson baxti to'kis ta'minlanishi uchun qay darajada faollik ko'rsata bilishi va bu faolligining samaralari, unumi bilan belgilanadi. Buning uchun esa imon va ilm, iqtidor va iste'dod, iroda qudrati va maqsad yo'lida fidoiylilik, keng dunyoqarash va erkin fikr kerak. Agar qaysi millat o'ziga mansub har bir insonning barcha ichki imkoniyatlari, iste'dodi ro'yobga chiqishiga sharoit yaratmas ekan, har bir shaxsning tashabbusi qadr topmas ekan, har bir yosh qalbida bilimga, tafakkurga, faol yaratuvchilikka intilish ishtiyoqi alanga olmas ekan, millat kamoli, mamlakat qudratining yuksalishi haqidagi gaplar og'izda qolib keta beradi.

Har bir fuqarosining baxti uchun qayg'urmagan jamiyat yetuk jamiyat bo'lmaydi. Shu sababli mustaqil yurtimizda o'tkazilayotgan barcha islohotlar, qabul qilinayotgan barcha qonunlar ruhi shunga yo'nalmoqda. Jahondagi eng oliyjanob va mas'uliyatli yumush -

¹⁵ O'sha asar, -B.61

¹⁶ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulimiz. 9-jild. -T.: O'zbekiston, 2001. -B.287.

¹⁷ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.80.

do'stingni, hamkoringni, qo'shningni, xullas, o'zga insonni "ulug' maqsadlar yo'lida yo'ldoshlik qilishga ko'ndirish," - deydi Preezident I.A.Karimov.¹⁸

Tavhid ta'limoti "vahdatda kasrat, kasratda vahdat" g'oyasiga tayanadi. Har bir inson Borliq haqiqatining bir jihatini ifodalaydi, butun insoniyat fikri umumiy maxrajga keltirilsa, haqiqatga ancha yaqin kelinadi. Bu g'oya milliy ma'naviyatimizdagi yetakchi g'oyalardan bo'lib, ayniqsa, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida yorqin ifodalangan. I.A.Karimov xuddi shu g'oyani amaliyotchi sifatida quyidagicha bayon qiladi: "Har qanday fikrni umumiy fikrlar majmuining bir bo'lagi deb hisoblab, bundan kerakli xulosalar chiqarish lozim"¹⁹.

Borliqda biz bilgan va bilmagan dunyolar, biz bilgan va bilmagan shaxslar(sub'ektlar), biz bilgan va bilmagan munosabatlar mavjud. Shunday ekan, biz Borliq haqiqati haqida umuman fikrlamoqchi bo'lsak, kalavaning uchini topa olishimiz dargumon. Agar biz nimanidir aniq tasavvur qilib, hayotimizga bevosita tatbiq qilishni istasak, o'zimiz inson ekanmiz, o'z mohiyatimizdan kelib chiqishimiz, ya'ni inson shaxsini, uning voqe' ehtiyojlarini diqqat markaziga qo'yib, voqelikning aniq maqsadlar sari yo'nalgan modelini yaratishimiz zarur.

Ammo inson ma'naviy kamoloti ta'minlanmasa, turli siyosiy to'ntarishlar faqat fojialarni ko'paytiradi, xolos. Bunga tarixning achchiq saboqlari - dalil. Inson mustaqil tafakkur egasi, shu sababli har bir alohida shaxs o'z atrofida yuz berayotgan muayyan voqealarga o'ziga xos munosabat namoyon etadi, voqelikni hech qachon hamma bir xil qabul qilmaydi. Demak, birov o'ziga nisbatan yuz bergan salbiy hodisadan ijobiy xulosa chiqarsa, ikkinchi kishi, aksincha, ijobiy munosabatga salbiy aksta'sir namoyon etishi ham mumkin.

Inson mohiyatida asli yaratuvchilik yetakchi o'rin tutadi. Dunyoning obodligi insonning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq. Insoniyat yaratuvchiligi bilan barhayot, kurashlari bilan emas. Demak, har bir zamon va makonda jamiyat taraqqiyotini insonlarning faol yaratuvchiligi belgilaydi, aksincha emas. Mustaqillik sharoitida nihoyat ushbu o'zak muammo to'g'ri hal qilindi. Hayotga yondoshuvda diqqat markazi "jamiyatga" emas, alohida insonga qaratildi. Iqtisod sohasida bu narsa ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Jamiyat"ga tayangan tuzum "ijtimoiy" mulkning yakka hukmronligini o'rnatib, xususiy mulkka egalikni jinoyat darajasida talqin etib, qonun bilan taqiqlab qo'ydi. Faqat mustaqillik tufayli har bir insonning mulkni erkin tasarruf qilish huquqi Konstitutsiyamiz asosida to'liq qayta tiklandi, jumladan, endilikda xususiy mulk barcha boshqa mulk turlarining poydevori sifatida qaralmoqda. Bu o'zgarish iqtisod sohasida alohida inson shaxsi birinchi o'ringa chiqayotganligini anglatadi. Qolaversa, 2011 yilni "Xususiy biznes va kichik tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi fikrimiz dalilidir²⁰.

Haqiqiy xalq hokimiyatchiligini mustahkamlash, qonun ustivorligini ta'minlash, fuqarolar jamiyatini shakllantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar esa siyosat sohasida alohida shaxs mavqeini birinchi o'ringa olib chiqishga qaratilgan. Siyosat sohasida erkinlashtirishni kengaytirish rejalari ham yana bir marta davlatimiz va Prezidentning ushbu yo'nalishga ustivor ahamiyat qaratayotganligidan darak beradi²¹. v) iqtisod, siyosat, ma'naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o'zaro uyg'unligi zarurati. Moddiyunchilar jamiyatni birinchi o'ringa qo'yishlariga yana bir sabab bor. Ma'lumki, inson jamoa bo'lib yashaydi, shu bilan birga har bir inson moddiy vujud sifatida nafaqat atrofidagi o'zi singari mavjudotlar bilan, balki tabiat, aniqrog'i moddiy borliq bilan ham doimo amaliy munosabatda bo'lishga majbur. Shundan kelib chiqib, moddiyunchilar insonning mohiyatini iqtisodiy va ijtimoiy, jumladan, siyosiy munosabatlar doirasida belgilashga harakat qilishadi. Ular dinni ham, madaniyatni ham faqat ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar majmuidan keltirib chiqarmoqchi bo'lishadi. Bunday yondoshuvda inson moddiy, biologik mavjudot sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uning boshqa biologik mavjudotlardan mohiyatan farq qiluvchi maxsus munosabatlar doirasi mavjudligi va bu

¹⁸ O'sha asar, -B.69.

¹⁹ O'sha asar. -B.204.

²⁰ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davomi – taraqqiyotimizning muhim omilidir. "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.

²¹ Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2010.

munosabatlar o'zicha mustaqil sohani tashkil etishi tan olinmay, soyada qolib ketadi. Bu soha insonning Haq bilan, Borliqning mohiyati bilan munosabatiga oiddir.

Sobiq Ittifoq davrida hukmron komfirqa va davlatning barcha qarorlarida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalarga katta ahamiyat berilgan holda madaniyatga eng oxirida g'aribgina bir joy ajratilar, "ma'naviyat" tushunchasi esa o'sha paytlarda yuqori doiralarda umuman ishlatilmas edi. Alohida qayd etib o'tish joizki, milliy ma'naviyat nazariyasining shakllanishiga O'zbekiston Prezidentining qo'shgan eng muhim xissasi ma'naviyatning iqtisod va siyosat bilan bir qatorda inson va jamiyat hayotidagi alohida mustaqil o'rni va ahamiyatini ajratib ko'rsatish bo'ldi. Busiz nafaqat ma'naviyat nazariyasi, balki insonning mustaqil mohiyati haqidagi g'oya ham o'z mukammal izohini topmay qolib kelayotgan edi.

Prezident I.A.Karimov doimo iqtisod, siyosat va ma'naviyatning uyg'un rivojlanishi zarurligini ta'kidlab keladi: "Davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma'naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan to'la uyg'un bo'lmog'i kerak"²². Chunki, mustaqilligimizning uch tayanchi - mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar siyosiy mustaqillik bo'lmasa, millat asta-sekin o'zligini yo'qota boradi, iqtisodiy mustaqillik bo'lmasa, siyosiy mustaqillikning zamini mo'rt bo'ladi. Ammo ma'naviy mustaqillik bo'lmasa, millatning o'zi bo'lmaydi. Faqat ularning o'zaro uyg'un rivoji ta'min etilsagina, O'zbekiston ulug' yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallay oladi.

Iqtisod, siyosat, ma'naviyat tushunchalari bugungi kunda turli doiralarda har qadamda ishlatilmoqda. Bu masalaga iqtisodchining o'z qarashi, siyosatshunosning yana mustaqil ta'riflari bor. Ammo inson va jamiyat hayotini uch yo'nalish yoki uch sohaga ajratib o'rganishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Avvalo, O'zbekiston Prezidentining ushbu yo'nalishdagi mulohazalarini milliy ma'naviyatimiz an'analari va jahon falsafiy tafakkurining turli oqimlariga xos umumiy jihatlar bilan uyg'unlikda olib, xulosa qiladigan bo'lsak, inson hayotining bu uch yo'nalishi voqelikda o'zaro qanchalik murakkab va chatishib ketgan bo'lmasin, ularni bir-biridan aniq farq qilgan ma'qul. Chunki iqtisod, siyosat va ma'naviyat insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlarga oid bo'lib, ulardan har birining manbasi ham, maqsadi ham alohidadir.

Inson hayotida ma'naviyat sohasining mustaqil ahamiyati alohida ta'kidlanishi, qolgan sohalarning o'zaro chegaralarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Ulardan, shartli ravishda, iqtisod yo'nalishi deb nomlash mumkin bo'lgan birinchisi inson bilan atrof tabiat orasidagi amaliy munosabatlardan iborat. Buning asosida insonning moddiyligi yotadi. U moddiy vujud sifatida tabiat bilan doimiy modda almashuv holatida bo'ladi. Buning uchun inson o'zgalar bilan ham murakkab munosabatlarga kirishadi. Ammo bu yo'nalish doirasida insonlarning bir-biri bilan munosabati bevosita ular orasidagi nisbatga qaratilgan emas, balki tabiat bilan modda almashuv munosabatlarini tashkil etishga yo'налgandir.

Insonlarning bevosita bir-biri bilan munosabati ham o'z mustaqil asosiga ega. Har bir insonning o'zga insonlar bilan bevosita munosabatlariga oid bo'lmish bu yo'nalishni, yana shartli ravishda, siyosat deb atash ma'qul ko'rindi. Iqtisodiy, ya'ni moddiy ta'minot bilan bog'liq muomalalar bevosita siyosatga aloqasi yo'q. Sof siyosat doirasida insonlar aro munosabatlar oxir-natijada mavqe va maqom masalasiga borib taqaladi. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni voqealarining boshlang'ich tuguni ayni shu maqom va mavqe muammosidan ulgu olishi bejiz emas. Agar insonlar faqat «qorin to'ydirish» tashvishi bilan yashaganda, ularning hayvonlardan umuman farqi bo'lmas edi. Va iqtisodiy munosabatlar ham o'zga jonzotlardagi kabi anchayin ibtidoiy bosqichda qolib ketish ehtimoli bo'lardi. Ayni mavqe va maqom doirasidagi bahs xolis siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Makiavelli kabi mashhur g'arb allomalarining qarashlarida ushbu sof holda olingan siyosat o'z aksini topgan deyish mumkin.

Ammo inson nafaqat tabiat va o'zga insonlar bilan munosabatga kirishadi, balki u o'zining Haqqa, Borliqning mohiyatiga nisbatini ham bilmoqchi bo'ladi. Inson uchun bu yo'nalish ham o'ta muhim. Avvalo, inson biror narsaga ishonmay yashay olmaydi. Imon-e'tiqodsiz hayot – bema'ni umrguzaronlik, xolos. Qolaversa, inson ilmga, ya'ni Borliqni anglab

yetishga o'zida juda kuchli ehtiyoj sezadi. Inson Borliqning mohiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilmay yashay olmaydi. Yana inson doimo oldiga kattami-kichikmi bir maqsad qo'yib, shunga intilib, shu yo'lda qandaydir faoliyat ko'rsatib yashaydi. Aytish mumkinki, hayvon nuqtai nazaridan qaraganda, inson o'zini ko'pincha bekordan-bekorga qiynaydi. Masalan, Tohirning Zuhroga ishq, bu yo'ldagi fidoyiliklari fiziologik ehtiyojlar nuqtai nazaridan uncha tushunarli emas. Abu Ali ibn Sinoning umrini ilmga baxsh etishi, Alisher Navoiyning «Xamsa» yozishi ham moddiyuncha «jaydari» falsafa nuqtai nazaridan anchayin oshiqcha o'zni qiynashdir. Ammo inson ma'naviyatida riyozat, ya'ni muayyan maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarni bo'yinga olish nihoyatda muhim o'rin tutadi. Yana insonda mehrga ehtiyoj bor. O'zgaga mehr ko'rgazish va o'zgadan mehr ko'rish ehtiyoji. Bu tuyg'uni ham faqat g'arazli maqsadlarga bog'lash yetarli bo'lmaydi. Albatta, moddiyunchilar aytib o'tilgan har qaysi ma'naviy ehtiyojga o'zlaricha moddiy zamin topib berishga harakat qiladilar. Hozircha, bu masalalar yuzasidan jiddiy bahs boshlamay turib, faqat bir narsani qayd etib o'tish joizki, inson hayotidagi uchinchi yo'nalish, ya'ni insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lgan munosabatini tan olmaslik insonning o'zga maxluqotlardan asliy farqini yo'qqa chiqaradi va oxir-natijada inson hayotini ma'nosizlantiradi. Chunki inson mohiyatan ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan yagona moddiy mavjudotdir.

Albatta, ta'riflab o'tilgan uch soha manfaatlari voqelikda nihoyatda chatishib ketgan, har qanday hodisada har uch soha unsurlari uchraydi. Bundan tashqari umuman mavjud uch sohadan birining muayyan muddat o'zgalaridan orqada qolishi, oqsashi qolganlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni orqaga torta boshlashi ham tabiiy qonuniyat. Biroq tarix ibratini va mantiq xulosasi shundan dalolat beradiki, iqtisod, siyosat, ma'naviyat yo'nalishlarini bir-biriga bo'ysundirishga, birini-biridan keltirib chiqarishga urinish ham yaxshi natijalarga olib kelmasligi aniq.

1.2. Umuminsoniy qadriyatlar va ularni milliy ma'naviyat munosabati.

«Milliy ma'naviyat desak, milliy biquqlikka yo'l qo'yamiz, umuminsoniy ma'naviyat haqida fikr yuritish kerak», degan gapni na ma'naviyat nimaligini, na milliylik va umuminsoniylik orasidagi nisbat qanday bo'lishini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, ilmiy savodi chala odamlargina aytishi mumkin. Bir insonga o'z milliy ma'naviyatini tugal anglab yetish uchun ham, Alloh yuz yil umr bersa, kamlik qiladi. Hindiston madaniyatidan bir chimdim, yevropa ilmidan ikki jumla, islom dunyosi ma'naviy merosidan ikki cho'qim olib, «jahonshumul» ma'naviyat nazariyasiga da'vo qilgandan ko'ra, o'zbek yurtida yashab o'tgan buyuk allomalar ijodini imkon darajasida izchil o'rganib, shu bilimlar asosida milliy ma'naviyat haqida fikr yuritgan afzal emasmi? Biz «ma'naviyat nima?» degan savolga nemis yohud ingliz, rus yoki polyak, hind yoki yapon qanday javob berishi mumkinligini bashorat qila olmaymiz. Umr bo'yi milliy ma'naviyatini, uzoq asrlar davomida o'z millati mansub bo'lgan mintaqada madaniyati vakillari ijodini asl manbalardan o'rganib kelgan odam ham milliy ma'naviyatimizni mukammal anglab yetdim, deb da'vo qilishga xijolat bo'ladi. Bu ish aslida ko'pchilikning ishi. Millat ma'naviyati uchun butun millat qayg'urishi kerak.

Ma'lumki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. «Odamzod birovning bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi», deydi Prezident²³. Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalari bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalari bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy-jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. yevropa xalqlarining umummintaqada madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqada madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni

²³ Karimov i.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.12.

hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarining o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi. Hech qachon bir inson haqiqatning tagiga yetgan emas. Chunki Borliq haqiqati – cheksiz. Uni anglab yetish uchun, birinchidan, shu kungacha insoniyat erishgan barcha yutuqlarni o'zlashtirish lozim bo'ladi Ammo butun insoniyat yaratib qoldirgan ilmiy merosni mukammal o'zlashtirish bir kishi uchungina emas, hatto kattaroq ilmiy jamoalar uchun ham og'irlik qiladi. Ikkinchidan, barcha insoniyatning yetishgan bilimlari ham Borliq haqiqati oldida ummondan tomchidek emas.

Umuminsoniy qadriyatlar har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo'ladi. Chunki milliy ma'naviyat tarixiy hodisa, o'zbekning ma'naviy takomili nemis yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy-madaniy makon va zamonda yuz bergan. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shaklu shamoyilda ifoda etishining siri shu yerda. Zohirbinlar ayni shu tashqi farqlarga e'tibor qaratib g'avg'o ko'taradilar, ahli dillar botiniy uyg'unlikni muhim hisoblashadi.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

O'z milliy ma'naviyatimizni tiklashga astoydil kirishish aslo o'zgaga g'ayirlik ma'nosini bildirmaydi, balki umumbashariy muvozanatni, uyg'unlikni, demakki, adolatni tiklashga urinishdir. Zotan, uyg'unlik buzilsa, bashar ma'naviyati ham to'kis bo'lmaydi. Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilishi lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Ma'naviyat doimo milliy bo'ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo'lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma'naviy dunyosi, ma'naviy qiyofasi bir paytning o'zida ichki mohiyatiga, o'zak tomirlariga ko'ra, o'zga xalqlar ma'naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo'ladi. Ma'naviyatning yuqorida eslab o'tilgan ta'rifini millat ma'naviyatiga tatbiq etadigan bo'lsak, uni bemalol millat ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik, deb atash joizdir. Shunday ekan, ayni millatimizni o'zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma'naviyat zahirini tashkil etadi. Faqat buni jo'n tushunish ham, jo'nlashtirib talqin etish ham –xato. Ma'naviyatimizdagi eng umuminsoniy g'oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o'zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma'naviyati unsurlaridan nusxa ko'chirish shaklida namoyon bo'lmaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo bir narsani esdan chiqarmaylik: biz milliy ma'naviyatimizni qadrlasak, uni rivojlantirishga urinsak, qaysidir o'zga xalqlar, siyosiy kuchlar, bizdan gumondor bo'lishi mumkin, bizning tilimiz, dinimiz, kiygan kiyimimiz yoki urf-odatlarimiz ularning didiga o'tirishmasligi, tanlagan mustaqil yo'limiz ular nazarda tutgan

qoliplarga mos kelmay qolishi mumkin deb, oshiqcha «andisha»larga berilsak, demak, bu hanuz ongimizdagi qaramlik asoratidir. yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarida o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, ajdodlari qoldirgan merosga mos qilib, ilmiy andoza va o'lchovlar yaratganlar, ta'rif va tizimlar shakllantirganlar. Agar ular yaratgan meros ta'sirida, unga ergashib boshqa bir xalq madaniy boylik hosil qilgan bo'lsa (masalan, sovet davrida SSSR xalqlari vakillari yaratgan ko'pchilik asarlarni olaylik), albatta, yevropa madaniyati andoza va o'lchovlarini unga tadbiq etsa bo'lar. Ammo o'zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo'lmaganidek, bugun endi ijtimoiyot mavzularida ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo'raki joylashtirilgan sun'iy qoliplardan o'ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o'rinli emas.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyat hayotda asli mavjud emas, jahon madaniyati turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo'lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o'z qiyofasi, o'z fe'l-atvori, fikr-andishalari, o'z hayot yo'li va orzuniyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan mahluqotning bir toifasi - bani odamga mansub bo'lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'r-ko'rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo'lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko'p marta isbotlagan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal-ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan deb bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma'naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo'ldi. Xatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Masalan, eng asosiy umuminsoniy qadriyat - har bir dunyo yuziga kelgan insonning yashash huquqini olaylik. Barcha ilohiy kitoblar insonning yashash huquqini himoya qiladi, o'zgalarga nohaq ozor yetkazmaslikka, insonni nobud etmaslikka chaqiradi. Ammo insonlar doimo ushbu da'vatga rioya etib kelmoqdami? Qaytaga, o'sha kitoblar qatidan o'zlariga maqbul bo'lmagan o'zga insonlarni yo'q qilish uchun fatvolar izlaydilar, o'zlarini "musulmon", o'zgalarni "kofir" deb e'lon qiladilar. Holbuki, insonlar e'tiqodi haqida hukm chiqarish faqat Allohga tegishlidir. Alloh hatto o'z payg'ambarlariga ham o'zgalar ustidan hukm chiqarish huquqini bergan emas, Allohning rasullari faqat uning hidoyatini bandalarga yetkazishga mas'ul etilgan, ya'ni payg'om (xabar) eltuvchidirlar. "Hukm qilish faqat Allohning o'ziga xosdir", deyiladi Qur'oni karimning "An'om" surasi 57-oyatida. Atrof-muhit, tabiatga behuda ziyon yetkazmaslik yana bir umuminsoniy qadriyat bo'lib, afsuski, bu ham hanuzgacha ko'pchilik insonlar tomonidan amalda rioya etilayotgan qoidaga aylangani yo'q. Insonlar, odatda, arziyas hoyu-havaslarini yo'lida o'z kelajaklari ildiziga ayovsiz bolta uradilar. Yana bir umuminsoniy qadriyat adolat tuyg'usi bo'lib, o'zbek xalqining "pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa, birovga", degan o'tkir ramziy maqoli bu qadriyatni kuchli bir tarzda ifodalaydi. Inson kofirga ham, musulmonga ham, do'stiga ham, dushmaniga ham adolat yuzasidan muomala qilishi zarurligi ilohiy kitoblarda ham ochiq-oydin bayon etilgan. Alloh taoloning "Rahmon" ism-sifatida uning Oliy adolati yorqin ifodasini topgan va bu ham insonga tabarruk ibrat bo'lmog'i kerak. Ammo adolat tarozusi pallalarini doimo teng tutish juda kam odamlarga nasib etib kelmoqda. Yaratuvchilik mehnati bilan shug'ullanib, o'z moddiy ehtiyojlarini ta'min etish ham umuminsoniy qadriyat va tabiiy zaruratdir. Bu qadriyatni tan olgisi kelmay, aylanib o'tishga, o'zgalar mehnati hisobidan o'z baxtini qurishga uringan kimsalar ham hanuz keragidan oshiq uchraydi.

Xullas, 130 yillik asoratdan so'ng yangidan mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallashga intilar ekan, avval-boshdan o'z baxtini o'zgalar hisobiga qurishga umid bog'lamasdan, barcha xalqlar bilan teng, adolatli, do'stona va samimiy munosabatlar o'rnatishga tarafdor bo'lib chiqmoqda, bashariyatning kelajagi uchun o'zini ham boshqalar qatori mas'ul his etmoqda. Bunday yondoshuv o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy tajribasiga ko'p jihatdan muvofiq keladi.

II-BOB. FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA MILLIY MA'NAVIYATGA HURMAT UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZI

2.1. Milliy ma'naviyatga hurmat – umuminsoniy qadriyatlar rivojlanish omili

Jahon tsivilizatsiyasidan ajralgan, o'zining alohida tarixiga ega millat bo'lgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalaimay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiyotga ega kelgan. Shuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiyot etishi lozim.

Butun jahon iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixiy, takdirlarining o'zaro bog'lanishi, chirmashuvi, bir-birini to'ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, u ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, u tanazzulga uchragan millat bo'lgan bo'lur edi. Bunday millat jahon tsivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidadir. Ayni chokda boshqa bir narsani ham e'tibordan sbqit kilmaslik kerak. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda xalq etishga intilish, milliy manfaatlar baxonasida milliy xudbinlikni, tekinko'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning maifaati va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajratilmagan holda o'rganilishi kerak.

Millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va bog'liqligini cho'qur anglash natijasi xamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirilib kelingan. Mintaqamizdagi bu boradagi yuksalish davrlari ushbu bog'liqlik asosida amalga oshirilgan. Turli millatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohadagi aloqalar hozir ham milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayoniga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Hozirgi davrda davlatlararo munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar axloq va ma'naviyatning ustunligini e'tirof etish, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar o'zaro hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil etuvchi asosiy omil sifatida qaror toptirish tamoyili tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmokda.

Buning zarurligini ziddiyatli va ayni vaqtda yaxlit holda bog'liq bo'lgan butun dunyoda olib boriladigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida o'z mazmuni bilan, shu jumladan barcha xalqlar umum tsivilizatsiyasining uzviy qismi sifatida tushunish kerak bo'ladi.

Umuminsoniy qadriyatlarni nazar-pisand kilmaslik — jahon hamjamiyatiga, uning ma'naviy sog'lomligiga tuzatib bo'lmas darajada ziyon-zahmat yetkazish demakdir.

Mustaqillik qo'shni mamlakatlar, turli millat vakillari bilan barcha sohalardagi aloqalarni rivojlantirib borish imkoniyatlarini oshirib bormoqda. Asosiy vazifa bu imkoniyatlardan oqilona fodalana bilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatlar rivojiga katta hissa qo'shsa ham, aslo uning o'rni egallay olmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada kishalar o'rtasidagi birlik va birdamlik, tenglik va teng xuquqiylik, insonparvarlik, rahm-shavqat, mehr-muruvvat, adolatparvarlik, baynalminallik singari qadriyatlarnig o'rni ayniqsa kattadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayonini tezlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida fakat milliy qadriyatlar manfaatlari bilangina, bir tomonlama, ya'ni sinfiy xarakterda cheklanib qolinsa, materialistik dialektika metodologiyasiga zid ravishda ish tutgan bo'linadi. Ayni bir vaqtda dialektikani e'tibordan soqit qilish ba'zi tadqiqotchilarga pand berdi, yagonalik, alohidalik va umumiylik kategoriyalari asosida baxo berishda bir tomondan boshqa tomonga sapchishga, haddan oshishlarga imkon yaratib berdi.

Ong odatda turmushdan orqada qoladi. Ongning bir qismi bo'lmish tafakkur esa doimo xam voqelikning rivojlanishi bilan bir safda borishga ulguravermaydi. Bunday hol tafakkurni aqidaparastlikning qolipiga joylashtirishga harakat qilinganda yuz beradi. Ayni shu sababli umuminsoniy va milliy jihatlarining dialektikasi to'g'risidagi ta'limot namoyandalarining ko'pchiligi nohaq unutilgan, noto'g'ri baholangan yoki ongli ravishda tilga olinmay kelingan. Endilikda bu jihatlarining o'zaro aloqadorligini ham huquqiy, ham insoniy tomondan tiklash zarur. Bu avvalo, mamlakatimizning insonparvarlik mohiyatini, umumjahon xalqlarining o'zaro foydali manfaatlarini ifodalagan bo'lur edi.

Shuning uchun ham umuminsoniy va milliy manfaatlar, qolaversa qadriyatlarni o'tib bo'lmas to'siqlar bilan ajratmasdan, balki ularni tadqiq etib, ular o'rtasidagi har tomonlama aloqadorlik va bivositaliklarni aniqlash va bundan ilmiy xulosa chiqarish lozim.

Jahon hamjamiyati o'z mavjudligiga nisbatan juda ulkan xavf-xatarga, tashvish va muammolarga yuzma-yuz turib qolgan hozirgi paytda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yotgan manfaatlarga zamon talablaridan kelib chiqib, to'g'ri yondoshuv ayniqsa zarurdir. Iqtisodiy-siyosiy, madanni-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy va shunga o'xshash boshqa omillar, harbiy sohaning, aloqa va axborot yig'ishning rivojlanishi mamlakatlar va xalqlarni tobora ko'proq yaqinlashtirmokda. O'zaro bog'liklik bunday o'sib borayotgan shart-sharoitda umuminsoniy muammolar ayrim sinflar, iqtisodiy tizimlar, millatlar, madaniyatlar, dinlar va mafkuralar doirasidan chetga chiqmoqda. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, mamlakatimizning hozirgi tafakkuri va uning siyosati o'zida sinfiy, milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni birga qo'shishi, birlashtirishi kerak.

Mamlakatni turli sohalardagi rivoji ma'lum xalq va millat faoliyati tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir tomondan milliylik xususiyatiga egadir. Ikkinchi tomondan esa, jamiyatdan ajralgan holda, alohida millat, xalqlarning mavjud bo'la olmasligi sababli, butun insoniyatga xos bo'lgan umuminsoniy jihatlarini o'z ichiga oladi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berishda milliylik va umuminsoniylik o'zaro uyg'unlik xolda, bir-birini to'ldirib, boyitib boraveradi. Sobiq sovet tuzumi davrida millatlararoga xos bo'lgan xususiyatlarning kamsitish, ularning sotsializm qurish maqsadlariga bo'ysundirish asosiy yo'nalish bo'lib kelgan edi.

Baynalminallik bayrog'i ostida bir millatning milliy qadriyatlarga sajda qilish, ulardan o'rnak olish va ular yo'lidan borish targ'ib etildi, bundan chekinganlar qoralandi. Sobiq sovet tuzumiga barham berilgandan so'ngina xar bir xalq o'zining milliy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkonlariga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda yashayotgan millatlar madaniyati taraqqiyotiga keng yo'l ochib berildi. Toptalgan, kamsitilgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi.

Milliy xayot va taraqqiyotda milliylik, uning o'tmishi, kelajagi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan xudud va boshqalar bilan uzviy bog'langandir. Ular turli xil shakllarda, bir-birlari bilan uzviy aloqada namoyon bo'lib, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimida, avvalombor til, qon-qardoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik va shu singarilar yagona asosga ega ekanligi barqarorlikni ta'minlab beradi. Milliy qadriyatlar qadriyatlar tizimida o'z o'rni va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolish xususiyatiga ham ega.

Har bir millatda va shu millatning milliy g'ururiga ega bo'lgan a'zosida millatga xos bo'lgan qadr-qimmatni saqlash, hurmat qilish, e'zozlash, boyitish va rivojlantirish tuyg'usi bo'ladi. Millatlarning o'zini-o'zi anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar xam, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi. Milliy qadriyatlar ning kuchayib borishi milliy maxdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millatli manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlarning manfaatdari bilan hisoblashmaslikka olib kelmasligi kerak.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib, turmush jarayonida yangilanib rivojlanib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqiyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishidagi, hozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon tsivilizatsiyasining yaxlit bir butunligini ifodalanganligi bilan milliy qadriyatlardan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar xilma-xil bo'lib milliy nizolarni oldini olish, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish ham uning asosiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Umuminsoniylik alohida millat qadriyatlarini butun olamga targ'ib qilish yo'li bilan emas, balki barcha millat va elatlarning qadriyatlarining avaylab-asrash, uyg'unlashtirish, xurmat qilish va jahondagi milliy xilma-xillikning umumbashariy xilma-xillik bilan uzviyligini anglash orqali boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar, xalqlarning maqsad intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi.

Turli ijtimoiy-siyosiy tuzumni davlatlar o'z milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan umumlashtirgan bungi kunda ham mavjud bo'lgan millatchilik singari illatlardan xoli qilgan holda ustunlikka erishtirish kerak.

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalaning umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib hal qilinishiga hammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berish, millatidan qa'tiy nazar barcha insonlarni omon qolishi ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va qo'shnichilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o'zgarishi ularning asosiy, tub mohiyatli xususiyatlaridir.

Umumjahon tsivilizatsiyasi jarayonida barcha millatlar va yangi milliy hosilalarning roli oshgan hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o'zining milliy xarakterini yo'qotmagan xolda o'zini borgan sari ko'proq darajada ayni xalqlar orasidagi munosabat sifatida ro'yobga chiqarmokda. Bunday vaziyatda «tashqi» (jahon miqyosi) va «ichki» (milliy) jihatlarni turli mustaqil sohalar bo'yicha ajratish o'rinli ekani dargumon bo'lsa kerak. Zero, «jahon miqyosidagi» jihat «milliy» jihatga nisbatan olganda — mahalliy (sinfiy, sotsial, milliy) muammolarga faqat arziyas tuzatishlar kirituvchi qandaydir «tashqi omil» emas, balki keng yoyiluvchi ichki reallikdir. Ayrim davlatlar va millatlar shakllanayotgan jahonshumul yaxlitlik elementlar sifatidagina hozirgi o'zaro bog'liq dunyoning mustahkam qismlariga aylanadi va chinakamiga tushunilishi mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi ayni vaqtda milliy qadriyatlarni mustahkamlab, ularga yangi olamshumul va milliy realliklarga javob beradigan shakllar berish zarurligini taqozo etadi. Taraqqiyparvar kuchlar o'z mamlakatlaridagi milliy manfaatlar va qadriyatlarni dunyodagi o'sib borayotgan qiziqishlar bilan o'zaro bog'lashga harakat qilmoqdalar.

Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umuminsoniy maksadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o'z milliy kelajaklarini dunyo bo'yicha mushtarak xavf-xatarlardan qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, qashshoqlik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma'naviy meroslar xalokatidan qutqarib qolishi mumkin emas-degan xulosaga kelmoqdalar.

Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo'lgan shaxs hukuqlarini hurmat qilishni qabul qilmagunlariga qadar ular oldida na butun xamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi xam muvaffaqiyatli hal etilishi, xalqaro xavfsizlikning ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas.

Dunyoning barcha tinchliksevar davlatlari singari mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta'minlab berishga qaratilgan siyosati xalqimizni o'tmishdan shakllanib kelgan insonparvarlik qadriyatlariga suyanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek, "Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarini qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakat, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jaxon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin"²⁴.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi shu qadar qat'iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustaxkam «chatishib» ketganki, ularning loaqal birortasini «tushib» qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishga qodir, tor ma'noda tushuniladigan milliy qadriyatlarning torozi pallasni bosib ketishi tufayli og'ish sodir bo'lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va yonma-yon suyanib rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining tarixan belgilanib qolgan turmushini tubdan o'zgartirish qonunlarini bir qadar tezlashtirib yubordi. Chunonchi, «uchinchi dunyo» davlatlari jahon xalqlarining ijtimoiy tajribasi va texnikaviy vositalarini o'zlashtirib, rivojlanishning an'anaviy tiplaridan jiddin farq qiluvchi yangi tipini shakllantirmokda.

Boshqacha aytganda hozirgi dunyoda ijtimoiy tabaqalarni, ularning «sof ko'rinishida», bir-birlaridan ajralgan holda chinakamiga ilmiy, xar tomonlama, dialektik tasavvur qilish qiyin hamda samarasizdir. Jahon tsivilizatsiyasining rivojlanish yo'lini shunchaki oddiy hol deb qabul qilmaslik kerak. Ko'p ukkladli mamlakatlarni yaxlit jahon taraqqiyotining butun xilma-xilligida bilib olish, tadqiq qilish, o'zlashtirish, tsivilizatsiya singari kategoriyalarning mohiyatini anglab yetish, insoniyatning olg'a borishida «ma'rifatli» va «farmatsion» jihatlarning o'zaro aloqadorligini aniqlash lozim bo'ladi. Rivojlanish omilining ahamiyatga molikligini shubha ostiga olmasdan, biz nazariyada xam, amaliyotda ham dunyoda qarama-qarshiliklarning mavjudligi uning yaxlitligidan qolishmaydigan darajada realligiga tegishli e'tibor bermaslik mumkin emas. Milliy xudbinlik har qanday bitishuv, qo'shiluv va murosani istisno etadi, binobarin, olg'a qarab harakat qilishning yo'liga g'ov ko'yadi. Dunyoning yaxlitligi g'oyasi turli ijtimoiy tuzumli davlatlarning hamkorligisiz amalga oshishi mumkin emas.

Har bir xalq o'z milliy manfaatlarini, milliy qadriyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini hurmat qilishi kerak. "Bugungi kunda dunyoning ayrim xududlarida... katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, milatning

²⁴ Lafasov M., Yusupov O', Nomozova K. Milliy –ma'naviy tiklanish. O'quv qo'llanma. T., 2008. –B.200.

asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdang chiqayotgani... kuzatish mumkin”²⁵. Zero, haqiqatdan tinchlik, yaxshi qo’shniçilik, har tomonlama hamkorlik, o’zaro ishonç nafaqat omon qolish, balki ko’pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy huquqlarini, milliy va ma’naviy boyliklari va meroslarini saqlash orqali -umummilliy qadriyatlarni ta’minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarning o’ziga xos vazifalari real muammolar bo’lib qolaveradi. Jahonshumul muammolarni hal qilishning shoshilinchligini inkor etish, ularning umuminsoniy manfaatlarini yanada ta’sirchan himoya qilishga intilishi bilan belgilanuvchi taraqqiyparvar harakatlarning obro’si, ta’sirini oshirish imkoniyatlariga e’tibor bermaslik, mulohazasiz ish tutish bo’lur edi. Shu sababli bunda shoshilinch yangilash, hamma narsani o’ylamay-netmay qayta ko’rib chiqish ham, o’zlashtirilgan yerlardan yangi yerlarga o’tishdan hadiksirovchi qo’rqoqlarcha aqidaparastlik ham samarasizdir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o’zaro munosabatini dialektik tushunish mamlakat ichida ham, jahon maydonida ham samarali ta’sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega. Darvoqea, faoliyatning istalgan sohasi uchun davlatlar hamjamiyatida yuz berayotgan o’zgarishlarni o’z vaqtida payqash va hisobga olish muhimdir.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishga yangicha tafakkurni izchillik bilan qo’llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining o’zaro ijobiy, bunyodkorona hamkorligini yo’lga qo’yishga yordam beradi. Endilikda inson zoti mushtarakligini anglab, eski andozalardan asta-sekin xalos bo’linmoqda, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha hayot uchun g’oyat zarur bo’lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yo’naltirish hukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruhlar va jamoalardan o’z manfaatlarini va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yo’li bilan qaratishni taqazo etadi. XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik o’zida yaxlit narsa sifatida tsivilizatsiyani, o’z-o’zini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning o’zini saqlash to’g’risida g’amxo’rlik qilishga o’tkir ehtiyoj yo’q edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari aks ta’sir aloqa ham yuzaga keldi: individlar hayotini qo’llab-quvvatlash va takror xosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita bog’lik bo’lib qoldi. Shu sababli uning omon qolishi to’g’risidagi g’amxo’rlik ob’ektiv ravishda kishilik borlig’ini o’z jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga bo’lgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylanadi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligini anglash jahon hamjamiyati oldida ularning ro’yobga chikarilishini kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish muammosini qo’ydi. Fikrimizcha, milliy qadriyatlarini umumjahon qadriyatlari darajasiga chiqarishda xalqaro faoliyatning davlatlar o’zaro munosabatlari butun kompleksidan kelib chiqadigan eng muhim negizlariga tayanish kerak. O’z xavfsizligini boshqalar xavfsizligi hisobiga ta’minlashning, o’z manfaatlarini boshqalar manfaatlariga ziyon yetkazish hisobidan himoya qilishning mumkin emasligidan kelib chiqish kerak. Har bir xalqning tiklanish erkinligini tan olish yangi jaxon tartibidagi asosiy jihatdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog’lanib ketganini jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshayotgan jarayonlarda yaqqol ko’rish mumkin. Ayni vaqtda mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan yaqin munosabatlarni kuchaytirishga, eng dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga katta e’tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining demokratiyalashtirishga, millatlararo totuvlikni ta’minlab berishga katta e’tibor berilayotganligi jaxon xamjamiyati tomonidan e’tirof etib kelinmoqda.

²⁵ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B.12.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida O'zbekiston mustaqilligini tan olgan, ularning ko'plab bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. O'zbekiston ko'plab nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lib, ularning ishlarida faol qatnashib kelmoqda.

Ko'plab dolzarb muammolarni xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etib kelinayotganligi milliy qadriyatlarni alohida unsurlarini tashkil etuvchi milliy til, milliy davlatchilik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy urf-odatlar, milliy an'analarni tiklash bilan uyg'unlashtirgan holda kelajak sari qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Gullab-yashnaydigan, erkin va demokratik jamiyatga yolg'iz o'z yo'lini ijtimoiy rivojlanishning boshqa yo'llariga qarama-qarshi qo'ygan holda kelish mumkin emas. Birgalikda rivojlanish, birgalikda ijod qilish, hamkorlik davrning qat'iy talabidir. Qadimgi Yunoniston, ma'rifatparvarlik davri, yangi va eng yangi davr inqiloblari insonparvarligining barcha eng yaxshi tomonlarni o'zida mujassamlashtirgan umuminsoniy demokratiya ideallari sari xarakatning zarurligini hal etish barakalidir. Amaliyotda bu xalq inson huquqlari sohasida BMT xalqaro huquq hujjatlari, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ko'plab xalqaro bitimlar, yangi yevropa uchun, Parij xartiyalarining universal negizida xalqaro hamkorlikning kengaytirilishini anglatadi. Ularni hurmat qilish, ularga amal qilish, qonun bilan kafolatlash, himoya qilish, to'liq amalga oshirish- hukumatlar va davlatlarning eng birinchi burchi, shaxsning ruhiyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi hamda kishilarning ijtimoiy kuch-g'ayratini ozod etuvchi erkinlik, adolat va tinchlikning negizidir. Har kanday jamiyat xayotini demokratiyalash kuchaygan sari fuqarolarning siyosiy ongi, ularning faolligi oshib boradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, ayni vaqtda bizning mamlakatimiz jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro yaqinlashish niyatida bozor munosabatlarini rivojlantirmoqda. Bunday yangi iqtisodiy siyosat ayni bir paytda ham bizning milliy talablarimizga, ham umuminsoniyat manfaatlariga javob beradi. Shuning uchun ham aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlar bizga o'z ko'maklarini ko'rsatmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan keyingi vaqtda bir necha xorijiy mamlakatlarga qilgan safari chog'ida imzolangan ko'pgina shartnomalar yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining qilayotgan ma'ruzalarida, asarlarida mustamlakachilik davridan qolgan illatlarga barham berish yo'lida oldimizda qanday vazifalar turganligini ta'kidlab kelmoqdalar. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy qadriyatlarni tiklash, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, fuqarolar totuvligini ta'minlash, millati, dini va e'tiqodidini qat'iy nazar har bir shaxsning erkinligiga va inson huquqlariga kafolat beriladigan zamonaviy demokratik davlatlar qatoridan joy olishdir.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni, turli millatlar manfaatlarini, mintaqada asrlar mobaynida tarkib topgan turmush tarzini hisobga olinmoqda.

Shu bilan birga millatlararo munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida hal etib katta yutuqlarga erishgan mamlakatlarni tajribalaridan, hamda milliy munosabatlarni tashkil etish yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqarilgan holda foydalanib ish olib borilmoqda.

Shuni e'tiborga olish lozimki, qator xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan sobiq sovet davlati xududida hamda shu singari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan boshqa ko'plab davlatlarga moddiy va ma'naviy tomondan yordam ko'rsatilishi ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Chunki yangi davlatlar mustaqillikning ilk kunlaridanoq uchraydigan ma'lum bir qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonida turli xil muammolarga uchrashi mumkin. Jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlardagi xatoliklar va kamchiliklar, shu jumladan milliy siyosatni tashkil etishdagi xatolikliklar ziddiyatlarning kelib chiqishiga, ularning keskinlashib borishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday

kamchiliklar va xatolar uzoq vaqt qaramlikni o'z boshidan kechirgan, ko'p millatli davlatlar uchun ayniqsa xavflidir.

Bunday muammolarning o'ta ziyraklik, ehtiyotkorlik, barcha millatlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal etish ko'p millatli O'zbekiston uchun ham xosdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ajdodlarning boshqa millat vakillariga nisbatan mehr-muruvvatli va do'stona munosabatda bo'lish fazilatlarini davom ettirilishi yurtimizda tinchlik va barqarorlik bo'lishini ta'minlab bermoqda. Ajdodlarimizning bunday fazilatlarini haqida gapirib, Prezidentimiz shunday deydilar "Qadimiy diyorumizda asrlar mobaynida turli madaniyat va tsivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa bag'rikenglik, tinchlikparvarlik, sahovat va mehr-oqibatlilik fazilatlarini bilan ajralib turadigan xalqamizning o'ziga xos mintaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi"²⁶.

Millatlararo munosabatlarni taraqqiy ettirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlab berish yo'lida chet el davlatlari berayotgan ko'magi, O'zbekiston rahbariyatini bu borada olib borayotgan siyosatining ular tomonidan ko'llab quvvatlanishi mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Bundan ham biz hozirgi paytda milliy va umuminsoniy manfaatlarining bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xalqlar hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zaro yaqinlashish madaniyat sohasiga ham to'la taalluqlidir. Shu asosda har bir milliy madaniyat boshqa xalqlarning madaniyatiga ta'sir etib, ularni boyitib, ayni paytda uning o'zi ham boyib boradi. Milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida rivojlanib, takomillashib borishi umuminsoniyat madaniyati taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jahon xalqlarining fan, texnika, adabiyot va san'at sohasida erishilgan ilg'or tajribalaridan atroflicha foydalanishni hayotiy ehtiyojga aylantirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotda milliylik bilan baynalminallikni joriy etish va rivojlantirishda ana shunga e'tibor qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar, ijobiy, foydali tomonlarni doimiy ravishda o'rganish, ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o'zaro boyitishning, kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning zaruriy yo'llaridan xisoblanadi. Har qanday milliy madaniyat jamiyat ma'naviy hayotining barcha rang-barang tomonlarini va boyliklarini o'zida aks ettiradi va shu tariqa yanada rivojlanadi, boyib boradi. Milliy madaniyat umuminsoniy madaniyatdan ajralmasdir, uning bir bo'lagidir. Shuning uchun ham har bir xalqning milliy madaniyatini umuminsoniyat madaniyatiga qarama-qarshi qilib qo'ymasdan, ularni o'zaro bog'liqlikda, olib qarash maqsadga muvofiqdir.

Birgina o'zbek milliy madaniy merosining necha asrlar davomida umumjahon madaniy merosi darajasiga ko'tarilib, gullab-yashnab kelganligini, uning umumbashariy madaniyat mushtarakligiga aylanib ketganligini jahon jamoatchiligining o'zigina aytib turibdi, buni butun jahon tan olmoqda va e'zozlamoqda

Buning yorqin misoli sifatida jaxon ilm fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk allomalarimizni tavallud kunlarini, Buxoro, Xiva shaharlarining 2500 yilligi, "Avesto" yozilganligini 2700 yilligini va shu singari tarixiy sanalarni jahon progressiv jamoatchiligi tomonidan YUNESKO rahnamoligi ostida nishonlanishidir. Bu o'zbek va boshqa tarixiy xalqlarning bebaho madaniy qadriyatlariga chuqur va cheksiz hurmat nishonasidir.

Afsuski, oxirgi yillarda bizning madaniyatimiz tabiiy mintaqa doirasidan sun'iy ravishda uzib olindi. Natijada yevropa mintaqasi madaniyati an'analarini jaxon madaniyati, deb o'z mintaqamiz madaniyati an'alarining qadriga yetmadik, nari borganda, mahalliy-

²⁶ Lafasov M., Yusupov O', Nomozova K. Milliy –ma'naviy tiklanish. O'quv qo'llanma. T., 2008. –B.204.

milliy chegaralardagi madaniyat unsurlari, deb qarashga odatlandik. Milliy madaniyatni jahon madaniyati darajasiga ko'tarib, uning ajralmas qismiga aylantirishni noto'g'ri tushundik. Endiga o'z mintaqa madaniyatimizni chuqur o'zlashtirib va mustaqil zaminda rivojlantiribgina asl ma'noda jahon madaniyatiga esh bo'la boshlashimiz mumkinligini tushunmoq payti keldi. Bu bir mintaqa madaniyatini boshqasiga qarshi qo'yish yoki biri chegarasida ikkinchisini ijodiy o'zlashtirishdan tiyilish ma'nosida tushunilishi kerak emas, albatta. Jahon xalqlaridan kim qaerda arzigulik natijaga erishgan bo'lsa, tahsin aytmoq, qoyil qolmoq, havas qilmoq va o'rganmoq lozim. Ammo o'zligini unutish o'zgani to'g'ri tushunishga yo'l ochmaydi. Aksincha ilmda bir yoqlamalikni keltirib chiqaradi.

O'zbek xalqining madaniyati jahon madaniyatidan chetda yuzaga kelgan va rivojlangan emas. O'zbek xalqining madaniyati faqat milliy asosda emas, shu bilan birga umuminsoniy madaniyatlar ta'siri ostida ham o'sadi, rivojlanadi. Xitoy, Qadimgi dunyo, Rim davri madaniyati, jahondagi boshqa madaniyatlar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z navbatida o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyatiga, taraqqiyotiga o'zining faol ta'sirini ko'rsatdi. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar tomonidan yaratilgan nodir asarlarning insoniyat ma'naviy xazinasining durdonasi, jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi bunga misol bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda o'zbek milliy madaniyati boshqa xalqlarning madaniyati ta'siri ostida rivojlanib boradi. Buni biz milliy san'at va milliy adabiyot sohalarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki turli mintaqa xalqlari madaniyatining ta'siri ostida O'zbekistonda madaniyatni yangi shakllari paydo bo'ldi va ular mintaqamiz madaniyatini yanada boyishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ham ular xalqimiz madaniyatini dunyoga tanitishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Yuqorida aytilganlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib xam, birinn ikkinchisiga qarma-qarshi qilib ham qo'yish mumkin emas. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi aloqadorlik falsafaning alohidalik va umumiylik kategoriyalariga xos munosabatlarni aks ettiradi. Umumiylik narsa va hodisalarning eng umumiy tomonlari orasidagi aloqalarni o'zida aks ettirib, o'z ko'rinishini faqat alohidaliklar orqali konkretlashtiradi. Umumiy faqat alohida orqali yashaydi. Har qanday alohida (u yoki bu tarzda) umumiydir. Har qanday umumiy alohidaning bir qismi yoki bir tomoni yoki mohiyatidir. Bizni kurshab olgan dunyo, tabiat va jamiyat umumiylik va xususiylikning o'zaro ta'siri natijasida bir vaqtda umumiy va uzluksiz jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Demak, milliy va umuminsoniy kadriyatlar xam bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib, bir-birini aks ettirib turadi.

2.2. Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi

O'zbek xalqining milliy g'oyasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu istaklarini ma'naviy omilidir.

Milliy g'oyasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Milliy, umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya tamoyillariga asoslanadi;
- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan ozuqlanadi;
- adolat va xaqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning im'on-e'tiqodini aks ettiradi;
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

- jamiyat a`zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

- millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro xurmat tuyg'usini qaror toptiradi;

- Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, El-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etishini belgilaydigan ma'naviy mezonidir.

Bu O'zbekistonda istiqomad qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining «Vatanim menga nima beradi» deb emas «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman» degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi demakdir.

Milliy istiqlool g'oyasining asosiy xususiyatlari Prezident Islom Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lib, «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»²⁷ risolasida muxtasar tarzda bayon etilgan. Milliy g'oya xalqimizning o'ziga xos tabiati, irodasi, orzu intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarini zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimizning hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- Bu mahalliychilik, hashar, marosimlar o'tkazish, to'y-tomoshalarda yaqqol ko'rinadi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, maxala, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamiyatga yuksak hurmat-e'tiborga;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbati;
- kattaga hurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, xayot abadiyligini ramzi-ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mexnatsevarlik;
- halollik.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarni qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunishi, his qilish shaklida muassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa u o'zining qaysi millatga mansub ekanligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin.

Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qoladi. Millatni milliy qadriyatlaridan mavhum qilish tarix, insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir. Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadriyatini saqlash, o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy mafkuralar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlashib boradi. Milliy qadriyatlarning e'zozlanishi va kuchayib borishi zinhor, milliy mahdudlikka, milliy xudbinlikka olib kelmasligi kerak. Shuning uchun ham bu masalada xushyorlik, nazokat, insof diyonat, bag'rikenglik sahovat talab qiladi.

Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Millatning ruhiyati, tarixiy an'analari, ma'naviy ehtiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlarni unga zo'rlab singdirishi mumkin emas. Ayniqsa, boy tarixiy merosga ega bo'lgan xalqlar ma'naviy hayot borasidagi zo'ravonlikni ruhan qabul qilmaydilar. Xalqlarga yangi ma'naviy qadriyatlarni singdirish uchun avvalo ularga nisbatan ehtiyoj tug'dirmoq kerak.

«Qadriyat» tushunchasi – juda keng tushuncha uning bir qismi – ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyat tushunchasi, avvalambor muayyan millat vakilari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlarni ifodalaydi.

²⁷ Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.:Yangi asr avlodi, 2001. –B.8

Qadriyat soʻzi arabcha soʻz boʻlib, u qadriyat-andoza, oʻlchov, meʼyor kabi maʼnolarga ega.

Prezident Islom Karimov qadriyat tushunchasini quyidagicha taʼriflaydi: «Qadriyat deganda, biz ming yillar davomida shakllangan odamlarning hayoti ichki dunyosidan mustahkam oʻrin olgan, hech qaysi rasmiy hujjatda aks etmagan boʻlsada, unga barcha amal qiladigan, insonlarni qon-qoniga singib ketgan anʼana va udumlarni tushunamiz»²⁸.

Yurtboshimiz quyidagi milliy maʼnaviy qadriyatlarni alohida koʻrsatib oʻtadi, yaʼni, «Qon-qonimizga singib ketgan azaliy qadriyatlarimiz-bagʻrikenglik, insof va diyonat, kattalarga hurmat, kichkinalarga shafqat, andisha mehr-oqibat va muruvvat kabi fazilatlarimizni koʻz qorachigʻidek asrashimiz darkor»²⁹.

Har bir millatning oʻzi uchun eʼzozli, qimmatli boʻlgan maʼnaviy qadriyatlari mavjud. Ular asrlar davomida avlod-dan-avlodga oʻtib kelgan, hozirgi kunda ham oʻzining ahamiyati va qadriyatini yoʻqotmay kelmoqda. Masalan, shunday maʼnaviy milliy qadriyatimizni minglab matal va maqollar, yuzlab xalq dostonlar urf-odatlarimiz, marosimlarimiz, udumlarimiz, ertak va rivoyatlarimiz, maqollar kabi kuy-navolarimiz, «Avesto» va boshqa manbalarda izhor etilgan diniy-maʼnaviy gʻoyalar va boshqalar.

Har millatning maʼnaviy qadriyatlarida uning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari Vatanga, tabiatga, ota-onaga mehnatga qanday munosabatda boʻlish va hokazolar.

Milliy qadriyatlarning jamiyatdagi roli va ahamiyati beqiyosdir. Agarda bir millat vakillari oʻz milliy maʼnaviy qadriyatlarni unuta boshlasa, unda bunday millat yoki uning vakillari koʻplab qiyinchiliklarga duchor boʻladi.

Milliy gʻoya va maʼnaviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, oʻzaro taʼsir mavjud boʻlib, bu quyidagilarda oʻz ifodasini topadi:

A) milliy qadriyatlar milliy gʻoya uchun maʼnaviy negiz, manba boʻlib xizmat qiladi (Masalan, milliy gʻoyada millatlararo totuvlik gʻoyasi muhim oʻrin egallaydi. Bu gʻoyani oʻzaro hurmat, izzat, begʻaraz yordam, ezgu niyat, samimiylilik, doʻstlik, tinchlik, sidqidillik, bagʻrikenglik kabi maʼnaviy qadriyatlarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi).

B) Milliy gʻoya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga koʻtarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili boʻlib hisoblanadi. Masalan, milliy gʻoya xalq millatning ezgu maqsadlarini ifodalashi, odamlarni shu maqsadlar sari amalga oshirish uchun birlashtirishi, safarbar etishi bilan muayyan maʼnaviy qadriyatlarga amal qilishiga yoʻl ochib beradi. Erkin hayot gʻoyasini shakllantirish va uni amalga oshirish bilan, odamlarda vijdonlik halollik, toʻgʻrilik, botirlik, qoʻrqmaslik, taraqqiyparvarlik kabi maʼnaviy qadriyatlar keng amal qilishiga sharoit yaratib beradi.

V) Milliy gʻoya maʼnaviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantiradi salbiy holatlarni inkor etadi. Milliy gʻoya demokratik oʻzgarishlarni qoʻllab-quvvatlaydi va shu bilan ayrim maʼnaviy qadriyatlarning mazmuning maʼlum darajada inkor etadi, yangi mazmun bilan boyitadi va yangi qadriyatlarni vujudga kelishiga sababchi boʻladi.

Milliy gʻoya va maʼnaviy qadriyatlarning uzviy bogʻliqligi juda boy mazmunga ega, milliy gʻoya va maʼnaviy qadriyatlar bir millatning eng muhim belgilari boʻlib, uning ruhiy olamining oʻzaro bogʻliq boʻlgan jihatlari sifatida amal qiladi. Millat ruhiyatining bu jihatlarni oʻz-oʻzidan ajratib hech ham boʻlmaydi. Buni shunday tushunish kerak yaʼni milliy gʻoyaning yuksakligi, uning takomil topish va amal qilish xalq, millatning maʼnaviy holatiga, boyligi va amal qilishga bogʻliq boʻladi. Maʼnaviy jihatdan qashshoq millatning milliy gʻoyalari shunga muvofiq boʻladi. Masalan, jamiyatda oʻgʻirlik, xudosizlik, yolgʻon, axloqiy buzuvchiliklar, poraxoʻrlilik, shavqatsizlik, aldanchilik va boshqa maʼnaviysizlikning koʻrinishlari keng tomir otgan boʻlib amal qilsa, unda milliy gʻoyalarning jamiyatdagi mavqei va roli yoʻq darajada kelib qoladi.

²⁸ Karimov I.A. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining oʻn yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati», 2002 yil, 6 dekabr.

²⁹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: Oʻzbekiston, 1999. –B.253.

Xalqimizning ko'p yillik tarixi shuni ko'rsatadiki, xalqning tub manfaaatlari amalga oshmasa unda jamiyatning taraqqiyoti ham sekinlashib unda ma'rifatning roli kamayib ma'rifatsizlik jaholatning roli oshib boradi. Hozir xalqimizning kelajagi jamiyatda milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning yuksak darajada amal qilishiga bog'liq bo'lib qoldi.

Milliy g'oyada milliy xususiyatlar va umuminsoniy qadriyatlar faqatgina e'tirof etiladi emas, balki u ularga tayanadi va biz asosida rivojlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, milliy g'oya ham milliy xususiyatlardek va umuminsoniy ma'naviy xususiyatlardan hayot va ozuqa oladi.

Faqat ezgu ma'naviy g'oyalarga va yuksak ma'naviy qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga elitgan.

Milliy istiqloq g'oyasi quyidagi milliy xususiyatlarga tayanadi:

- a) xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- b) jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt, tushunchalarini muqaddasligi;
- v) ota-ona, mahalla kuy, umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- g) millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- d) kattaga-hurmat, kichikka-izzat;
- e) ayol zotiga ehtirom, keksalarga hurmat;
- yo) sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- j) halolik, mehr-oqibat;

z) muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat;

i) bag'rikenglik, mehmondustlik, oqko'ngillilik;

Masalan, qadriyatlarni e'zozlash keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish kabilarni milliy g'oyani tasavvur eta olmaymiz.

Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat xalqimizda eng oliy qadriyatdir.

Milliy g'oya quyidagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi, ya'ni:

- a) bag'rikenglik;
- b) mehnatsevarlik;
- v) jamiyatda xalqni ustuvorligi;
- g) adolatparvarlik;
- d) taraqqiyparvarlik;
- e) vatanparvarlik;
- j) sahovatpeshalik.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuksak milliy va umumiysoniy ma'naviy qadriyatlarga, pokiza axloqqa, demokratiya, tamoyillariga tayangan milliy g'oyalar jamiyatni rivojlantirishga yetaklaydi.

2.3. Yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz an'analari ruhida tarbiyalash - ular ongini turli g'arazli "oqimlar" ta'siridan himoyalashning eng samarali yo'li.

E'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri. E'tiqodsiz kishida ma'naviyat bo'lmaydi, tashqi madaniy ko'rinish, hatto ancha-muncha bilim ham bo'lishi mumkin, ammo mag'zida ma'naviyat bo'lmaydi. Kishida umurtqa pog'onasi shikastlangan bo'lsa, unday inson gavdasini tik tutib tura olmaydi. Ma'naviy olam uchun e'tiqod ham shunday bir narsadir. Tarixda turli yolg'on payg'ambarlar ko'p bo'lgan. Ular oxir-oqibat beburdlikka mahkum bo'lganlar. Bashariyat, el, xalq qabul qilgan Oliy haqiqatlar esa asl ma'nosi bilan ilohiy, azaliy va abadiy manbaga egadir. Islom dinimiz ana shunday ilohiy inoyat hisoblanadi. Bizni 70 yil bu e'tiqoddan qaytarishga urindilar, jazoladilar, masxaraladilar, ta'qiqladilar. Sobiq Ittifoq davrida mafkuraviy tazyiq kuchaygan sari, jahonda islomning nufuzi oshib bordi. Amerika, yevropa, Avstraliyaga islom dadil kirib bormoqda.

Ibrat va ilmdan tashqari, milliy ma'naviyatimiz an'analari riyozat va mehr yo'llari ham ma'rifatga oid hisoblanadi. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg'unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma'rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko'ngil ko'zgusini pok tutib turadi. O'z navbatida Borliq haqiqatini anglab yetishning ham o'z darajalari borki, ular ulug' ma'naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat atalmish silsilada

ifodasini topadi. Bularning har biri haqida O'zbekiston Prezidenti asarlarida keltirilgan qimmatli fikr va mulohazalar tahlili alohida tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi. Ammo baribir ma'naviyat xususidagi bahs inson hayoti davomida tugamaydi. Din va ma'naviyat nisbati haqidagi suhbatning xulosasi shuki, dinni siyosiyashtirishdan qochish, unga buyuk ma'naviy qadriyat sifatida yondoshib, yoshlardagi e'tiqod ehtiyojini ayni shu yo'nalishda, Prezidentimiz "jaholatga qarshi ma'rifat" deb chiroyli ifodalagan ma'noda botiniy qudratga, ma'naviy kamolot sari yetaklovchi boqiy quvvatga aylantirish uchun butun imkoniyatlarni safarbar qilish zarur.

Yosh avlodda nafaqat o'z hayoti, oila a'zolari, Vatani va millati oldidagi, balki atrof-tabiat, butun kurrai zamin va jami bashariyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim masalasi bo'lib turibti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, ta'kidlab o'tadiki: "Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir"³⁰. Masalaga bunday keng qamrovli yondoshuv kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q, bizning ulug' ajdodlarimiz barchasi "o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga" da'vat etib kelganlar.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov doimo ta'kidlab kelganidek: "...Farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikru tafakkuri va zamonaviy bilimiga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga yetkazish – barchamizning otalik va onalik burchimizdir"³¹. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi harqanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlarga kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "...Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot kamol topadi" degan so'zlari ayni shu ma'noni anglatadi³². Bu esa har bir farzand, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har hil buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandning kamoloti – ertangi kunda barchaning tinch hayotini ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga hurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyat asoslari haqida tushuncha berish barchaning burchidir.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi, balki birlashtiradi. Aslida umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati,

³⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.13.

³¹ Imomnazarov M., Lafasov M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2008. –B.220.

³² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999. –B.135.

janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqa madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli bosharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborish mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilishi lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligi anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Biz milliy urf-odatlar, marosimlarga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlar majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qarash talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatni qadrlash, uni rivojlantirishga urinish, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zlikka qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. "Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi"³³.

³³ Imomnazarov M., Lafasov M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2008. –B.220.

XULOSA

Milliy ma'naviy tiklanish juda keng va ko'p qirrali jarayon, u kishilarning tafakkuri, xulq-atvori, yurish-turishi, orzu-umidlarini ham o'z chiga qamrab oladi. Shuning uchun mustaqillik natijasida vujudga kelgan milliy ma'naviy tiklanish tafakkurini kengroq tushunishimiz lozim. «Bu tushuncha,-deb ko'rsatadi I.Karimov, - avvalo O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish; o'zining va o'z xalqining, Vataning qadru qimmati, ornomusi anglab, uni himoya qilish, yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir»³⁴.

Yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish va ularga millatimiz tarixi, madaniyati haqida mukammal va puxta bilim berishda maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari alohida o'rin tutadi.

Mustaqillik sharoitida milliy ma'naviyatga hurmat, madaniyat va ma'naviyat masalari jamiyatimizni Qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni ishlab chiqishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Yosh avlodning ma'naviy kamol topishida, milliy ma'naviyat, qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashda Sharq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmoqda. Islom falsafasining eng afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning g'oyalari insonning ichki dunyosi, ma'naviyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham u kishilarning qalbida chuqur ildiz otib ketgan.

«Islohatlarning muvaffaqiyati,- deydi I.Karimov,-har birimizning qo'limizda, O'zbekistonda yashovchi barcha aholining qo'lidadir. Mamlakatimiz erkin, boy va ravnaq topayotgan mamlakat bo'lsin desak, farzandlarimiz baxtiyot va to'kin-sochin yashasin desak, islohatlar ikkinchi bosqichidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun butun kuch-g'ayratimizni sarflamog'imiz darkor. Bu bosqich mamlakatimizning jadal rivojlanishi, uning qudrati hamda jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratishga qaratilgandir. Ushbu maqsadlarga erishish bizning muqaddas burchimiz, kelajak avlodlar oldidagi ezgu majburiyatimizdir»³⁵.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarga hurmat – umuminsoniy qadriyatlar negizini tahlil qilinganda quyidagi natijalarni berdi:

- O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy xayotimizda xam ulkan o'zgarishlar sabab bo'ldi;
- O'zbekistonda milliy qadriyatlar ma'naviy yangilanishlar sharoitida tahlil etildi;
- Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma'naviyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar kabi tushunchalarni o'zaro bog'liqligi ma'naviy jihatdan to'la o'rganildi;
- Milliy g'oya rivojida milliy ma'naviy merosimiz an'alariga tayanuvchi nazariy qarashlar ishlab chiqildi;

Milliy ma'naviyatga hurmat, an'analar va umuminsoniy qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik printsiptga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

³⁴ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –T.: O'zbekiston, 1996. –B.47.

³⁵ Lafasov M., Yusupov O', Nomozova K. Milliy –ma'naviy tiklanish. O'quv qo'llanma. T., 2008. – B.209.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston. 1995.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. -T.: O'zbekiston. 1997. T.5.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997 yil.
5. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston. 1998.
6. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida –T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Milliy davlatchilik, istiqloq mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. -T.: IIV Akademiyasi., 1999.
8. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston. 2000. T.8.
9. «Adolat - qonun ustivorligida». I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq VI sessiyasigi ma'ruzasi, Xalq so'zi., 2001 yil 30 avgust.
10. Karimov I. A. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi so'z boshi. T.9. –T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.: O'zbekiston. 2002. T.10.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: O'zbekiston. 2003. T.11.
13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. -T.: O'zbekiston. 2005.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. -T.: O'zbekiston. 2005.
15. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
16. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
17. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
18. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustivor vazifamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. “O'zbekiston ovozi”, 2006 y. 8 dekabr . 145 (27.636)-soni.
19. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi”, 2007 y. 13 fevral . № 31 (4184).
20. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2007 yil 30 avgust. –T.: O'zbekiston, 2007.
21. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi VI qurultoyidagi ma'ruza. 2007 yil 6 noyabr . –T.: O'zbekiston, 2007.
22. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.

23. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral .
24. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009.
25. Islom Karimov. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. –T.: "O'zbekiston", 2009.
26. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma ruza. 2010 yil 27 yanvar.
27. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. 2009 yilning yalpi yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2010 yil 29 yanvar.
28. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
29. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1- sentyabr .
30. Karimov I. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabar .
31. Karimov I. "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar .
32. Ma'naviyat yulduzlari. T., O'zbekiston, 1998.
33. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –T.: "Akademiya" nashriyoti, 2007.- 352 b.
34. Bobomatov U. O'zbek milliy qadriyatlari tiklanishining ba'zi muammolari. Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanining dolzarb muammolari. 1997 y.
35. Boyqobilov B. Inson qadri va milliy g'ururi. G'G' Muloqot. 1993 y. № 11-12, 15-20 b.
36. Valiev A. Fuqaroviy jamiyat. G'G' Muloqot. 1993 y. № 9-10, 18-19 b.
37. Ziyoev Hamid. Istiqlol – ma'naviyat negizi G'G' Mas'ul muharrir: F.Ahmadjonov G'. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 192 b.
38. Imomnazarov M. Shaxs ma'naviyati va fuqaro mas'uliyati. G'G' Xalq so'zi, 1998 y. 15 sentyabr.
39. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. -T.: Sharq, 1998.
40. Istiqlol, demokratiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq. 2003.
41. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000
42. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., 1998.
43. Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. -T.: Ma'naviyat, 1998.
44. Otamurodov S., Xusanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
45. Paxrutdinov Sh. Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot. -T.: Ibn Sino, 1998.
46. Tulenov J., Z.Fofurov. Mustaqillik va milliy tiklanish. T.: O'zbekiston", 1996..
47. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan., T. 1995.
48. Falsafa: qomusiy lug'at. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.

49. Xayrullaev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. -T., O'zbekiston, 1995. 340 b.
50. Shayxova X. Inson va uning ma'naviy dunyosi. – T.: O'zbekiston, 1993.
51. Xanazarov Q.. Hozirgi zamon va mustaqil O'zbekistonda milliy munosabatlar. -T.: O'zbekiston, 1998.